GLOBAL MADANIYAT VA UNING MILLIY IDENTITETGA TA'SIRI

Toshmurodov Husanjon Erkinovich
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
husanboy3223@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda globallashuv sharoitida shakllanayotgan global madaniyatning milliy identitetga, xususan, o'zbek milliy o'zligini anglash jarayoniga ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Global madaniyatning axborot-kommunikatsion, iste'mol, til va qadriyatlar qatlamlari, shuningdek, uning milliy identitetga ta'sir ko'rsatish kanallari yoritiladi. Tahlil natijasida global madaniyatning integratsiyalashtiruvchi hamda assimilyatsiyalashtiruvchi ta'siri bir vaqtda mavjudligi asoslanadi. Milliy identitetni saqlashda ta'lim, oilaviy tarbiya, raqamli muhit va milliy madaniy merosning o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, global madaniyat, milliy identitet, milliy o'zlik, madaniy assimilyatsiya, ma'naviyat, etnomadaniyat, yoshlar.

Kirish. Globallashuv zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlaridan biri bo'lib, iqtisodiy aloqalarning transmilliylashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transport va aloqa vositalarining takomillashuvi natijasida xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuvni keskin tezlashtirdi.[9]. Global madaniyatni faqat ijobiy yoki faqat salbiy hodisa sifatida baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki u bir tomondan milliy madaniyatning jahon miqyosida tanilishi, xalqaro bilim va tajribalar almashinuvining kuchayishi

uchun yangi imkoniyatlar yaratadi; ikkinchi tomondan esa milliy til, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotiraning zaiflashuvi xavfini yuzaga keltirishi mumkin.[8]. Shu sababli global madaniyat va milliy identitet o'rtasidagi munosabatni dialektik nuqtai nazardan o'rganish muhimdir. Milliy identitet millatning o'zini anglashi, o'z tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari va kelajak taqdiri bilan bog'liqligini his etishining yaxlit tizimidir. Tadqiqotning maqsadi global madaniyat fenomeni va uning milliy identitetga ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish, ta'sirning ijobiy hamda salbiy jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning obyekti globallashuv sharoitidagi madaniy jarayonlar, predmeti esa global madaniyatning milliy identitetga ta'sir xususiyatlari va mexanizmlaridir.[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu bo'yicha mahalliy ilmiy adabiyotlarni mazmuniga ko'ra bir necha yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish ma'naviyat va mafkuraviy yondashuv bo'lib, I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida globallashuv davridagi mafkuraviy xavflar hamda milliy ma'naviyatni mustahkamlash masalalari yoritilgan.[5]. E.Yusupov milliy ma'naviyatning inson kamolotidagi o'rnini, A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'rayevlar esa vatanparvarlik va milliy g'ururning shakllanishini tahlil qilgan.[15; 3].Ikkinchi yo'nalish falsafiy-siyosiy tahlil bo'lib, S.Otamurodov globallashuvning millat va milliy davlat institutiga ta'sirini tahlil qiladi. Muallifning tadqiqotlarida milliy davlatchilikni globallashuv sharoitida asrash mas'uliyati va strategiyalari ham asoslangan.[8; 9]. Uchinchi yo'nalish identitet antropologiyasi va sotsiologiyasiga oid tadqiqotlarni qamrab oladi. Sh.Madayeva identitetning etnik, milliy, diniy va ijtimoiy ko'rinishlarini tizimli tahlil qilgan. A.Xursandov yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy identifikatsiya, X.Soqiyev esa axborotlashgan jamiyatda shaxs identikligining shakllanish xususiyatlarini tadqiq etgan.[6;14;12]. To'rtinchi yo'nalishda etnomadaniy jarayonlar o'rganilgan. F.Atamuratova o'zbek milliy mentalitetidagi etnomadaniy jarayonlarni, B.Saparov

milliy o‘zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional jihatlarini, R.Baratov yetuk kadrlar tayyorlashning etnomadaniy xususiyatlarini, N.Jo‘rayeva esa etnomadaniyat va milliy g‘oya mushtarakligini tahlil qilgan.[1; 10; 2; 4]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, global madaniyat va milliy identitet muammosi falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika fanlari kesishmasida o‘rganilmoqda. Biroq global madaniyatning milliy identitetga ta’sir mexanizmlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish masalasi yetarlicha yaxlit tadqiq etilmagan. Shu jihat mazkur tezisning asosiy ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli-falsafiy, qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va tarixiy-mantiqiy metodlardan kompleks foydalanilgan. Tizimli-falsafiy yondashuv global madaniyat va milliy identitetni o‘zaro bog‘liq hamda dinamik ijtimoiy tizimlar sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali mahalliy olimlarning ma’naviy-mafkuraviy, falsafiy-siyosiy, antropologik-sotsiologik va etnomadaniy yondashuvlari qiyoslangan. Kontent-tahlil yordamida ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan asosiy konseptual g‘oyalar ajratilgan. Tadqiqot metodologik asoslari N.A.Shermuxamedovaning ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid qarashlari bilan bog‘langan.[11].

Tahlil va natijalar. Global madaniyat bir xil mazmundagi yagona hodisa emas, balki bir necha qatlamlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Unda axborot-kommunikatsion qatlam, iste’mol madaniyati, til va qadriyatlar qatlamlarini ajratish mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot oqimini tezlashtirsa, transmilliy brendlar, moda va ko‘ngilochar mahsulotlar iste’mol andozalarini o‘zgartiradi. Xalqaro muloqotda ayrim tillarning ustuvorligi esa til muhitiga ta’sir ko‘rsatadi.[8] Global madaniyatning milliy identitetga ta’sirini tushunish uchun identitetning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash zarur. Sh.Madayeva konsepsiyasiga ko‘ra, milliy identitet til,

tarixiy xotira, qadriyatlar va urf-odatlar, hudud va makon hamda diniy-ma'naviy merosning uyg'unligidan tarkib topadi.[6] Vatan tuyg'usi va milliy g'urur esa ushbu tizimning hissiy-emotsional asosini tashkil etib, shaxsning o'z xalqi taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytiradi.[3].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, global madaniyatning ijobiy ta'siri uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyatlari kengayadi. Ikkinchidan, xalqaro tajriba va bilimlar almashinuvi milliy madaniyatning boyishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, global muhitda o'zini boshqa madaniyatlardan farqlash ehtiyoji milliy o'zlikni anglashni kuchaytirishi mumkin. Ushbu holat "identitet paradoksi" sifatida izohlanadi.[6; 8]. Salbiy ta'sirlar esa milliy tilga qiziqishning pasayishi, xorijiy so'zlarning asossiz ravishda kundalik muloqotga kirib kelishi, an'anaviy oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarning zaiflashuvi, tarixiy xotiraning global axborot oqimi ostida xiralashuvi hamda milliy manfaatlarni himoya qiluvchi institutlarga bosim kuchayishi bilan bog'liq.[8] Ayniqsa, yoshlar ijtimoiylashuvida oila, ta'lim tizimi va axborot muhitining o'zaro mutanosibligi muhimdir. Ushbu muvozanat buzilganda identitet inqirozi xavfi ortishi mumkin.[14; 12].

Xulosa.Tahlil natijalari global madaniyat va milliy identitet o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emasligini ko'rsatdi. Global madaniyat milliy madaniyatning xalqaro maydonda tanilishiga, bilim va tajriba almashinuviga hamda yangi madaniy shakllarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Shu bilan birga, milliy til, tarixiy xotira va an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi xavfini ham kuchaytirishi mumkin.[1; 8].

Shundan kelib chiqib, milliy identitetni saqlashning eng maqbul yo'li globallashuvdan izolyatsiyalanish emas, balki ochiqlik va milliy o'zlikni anglashni uyg'unlashtirishdir.[1;13]. Demak, globallashuv milliy identitetning muqarrar ravishda

yo‘qolishiga olib kelmaydi. Aksincha, maqsadli ta’lim-tarbiya, faol fuqarolik pozitsiyasi va milliy madaniy merosni zamonaviy vositalar bilan rivojlantirish orqali global madaniyat imkoniyatlarini milliy taraqqiyot manfaatlariga yo‘naltirish mumkin. Kelgusida ushbu masalani yoshlar o‘rtasidagi empirik sotsiologik tadqiqotlar asosida chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.[1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atamuratova F. Mustaqillik sharoitida o‘zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2010.

2. Baratov R. O‘zbekistonda yetuk kadrlar tayyorlashning etnomadaniy xususiyatlari va tamoyillari: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.

3. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

4. Jo‘rayeva N. Etnomadaniyat va milliy g‘oya mushtarakligi: uslubiy qo‘llanma. - Buxoro: Durdona, 2018.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Madayeva Sh. Identiklik antropologiyasi. - Toshkent: Noshir, 2015.

7. Nishonboyeva G. Mustaqillik davri madaniyati: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

8. Otamurodov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

9. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

10. Saparov B. Milliy g‘oya tizimida milliy o‘zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional tahlili: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent.

11. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.

12. Soqiyev X. Axborotlashgan jamiyatda shaxs identikligining shakllanish xususiyatlari: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022.

13. Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy tarbiyaning falsafiy masalalari. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.

14. Xursandov A. Yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy identifikatsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari: siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.

15. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1997.